

Toshkent DH - "Toshissiqquvvati" Loyihasi

Davlat: O'zbekiston

Loyiha tartib raqami: 49214

Biznes faoliyat turi: Shahar va atrof-muhit infratuzilmasi

E'lon turi: Ommaviy

Ekologik toifasi: B

Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi: 19 sentyabr, 2018 yil

Tasdiqdan o'tish bosqichi: Yakuniy tekshirishdan o'tdi, Kengash tomonidan tasdiqlanishi kutilmoqda

Loyihaning qisqacha mazmuni bo'yicha ingliz tilida xulosa chop etilgan sana: 13 iyul, 2018 yil

Loyiha mazmuni

Bank, "Toshissiqquvvati" Davlat unitar korxonasi ("Kompaniya") ning Ustuvor investitsiya dasturi ("UID") ni moliyalashtirish uchun Kompaniyani qayta kreditlash va/yoki unga berish maqsadida O'zbekiston Respublikasiga ("O'zR") 100 million AQSH dollari (83 million yevro) ga qadar bo'lgan miqdorda suveren qarz beradi. UID, Toshkent shahridagi issiqlik taqsimlash tarmog'ini qayta ta'mirlash, individual issiqlik podstantsiyalarini va quyosh panellarini o'rnatish ("Loyiha") kabi tumanlar isitish infratuzilmasiga bo'lgan investitsiyalarni o'z ichiga oladi.

Loyiha maqsadi

Loyihani amalga oshirish natijasida gaz iste'molining yiliga 38 mln. m³ ga kamayishi va 86 kT CO₂ miqdoridagi CO₂ emissiyasini kamaytirishga olib kelishi kutilmoqda. Loyiha, shuningdek, quvurlarni qayta ta'mirlash va individual issiqlik podstantsiyalarini joriy qilish orqali suvni tejash imkonini beradi.

O'tish davri ta'siri

Yaxshi

O'tish davri ta'sirining manbalari quyidagilardir:

1) "Yashil". Loyiha, Toshkent shahri tumanlari issiqquvvati quvurlarni almashtirish, tarmoq nasoslarini yangilash va almashtirish, shuningdek, individual issiqlik podstantsiyalari va o'lchagichlarini o'rnatish orqali issiqlik taqsimoti va iste'molida energiya samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, oldindan belgilangan davlat

binolarida yiliga 12 GV/S ga yaqin qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishi kutilayotgan quyosh energiyasini yaratish tizimlari o'rnatiladi. Shu sababli, Loyiha iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha ijobiy faoliyat sifatida baholanadi.

2) Mustahkam. Loyihaning e'tibori Kompaniyaning xarajatlarini tiklash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy va operatsion takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

Mijoz haqida ma'lumot

O'ZBEKISTON UCHUN SUVEREN

YTTBning moliyaviy mablag'i

100 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

100 000 000,00 AQSH dollari

Ekologik va ijtimoiy xulosa

Loyiha YTTBning 2014 yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosatiga muvofiq "B" tasnifiga kiritildi. Loyiha bo'yicha tavsiya etilgan Ustuvor investitsiyalar dasturi (UID) uchun Ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega choralar (ESDD) Infratuzilmaviy loyiha tayyorlash mexanizmi (ILTM) doirasida jalb qilingan mustaqil maslahatchilar tomonidan Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning bir qismi sifatida amalga oshirildi. U joriy amaliyotlarni ko'rib chiqish, Loyihaning potentsial ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholash va Kompaniyaning amaldagi ekologik va ijtimoiy qoidalari va boshqaruv imkoniyatlarini ko'rib chiqish kabilarni o'z ichiga olgan. UIDning barcha komponentlari kelgusida mahalliy ruxsat berish tartib-qoidalari va Atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni baholash (OVOS) qonunlariga bo'ysunadi. Loyiha uchun Atrof-muhit va ijtimoiy tadbirlar rejasi (ESAP) ishlab chiqilgan va u Kengash tomonidan tasdiqlanishidan oldin alohida Loyiha kelishuvi doirasida Kompaniya bilan kelishib olinadi. Shuningdek, Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejaları (SEP) va texnik bo'lmagan xulosalar (NTS) ham ishlab chiqilgan va e'lon qilinadi.

Kompaniya atrof-muhit, mehnat xavfsizligi va kadrlar bilan ishlash bo'yicha xodimlarini ishga olgan bo'lib, ular o'z ishiga ta'lluqli milliy miqyosdagi ekologik va ijtimoiy huquqiy majburiyatlarini yaxshi bilishadi. Kompaniya milliy qonunchilik va tegishli ruxsat olish qoidalari muvofiq (agar berilgan bo'lsa) faoliyat yurgizayotgan bo'lib, Atrof-muhit va ijtimoiy tadbirlar rejasi doirasida tuzatilishi lozim bo'lgan ba'zi bir mos kelmasliklar mavjud.

UID, kompaniya tomonidan boshqariladigan tumanlardagi isitish tizimining bir qismining faoliyat samaradorligi va markazsizlashtirilishini oshirish bilan bog'liq investitsiyalarni qamrab olmoqda (ayrim mikrohududlar markazlashtirilgan tuman isitish tizimidan uziladi va yangi mahalliyashtirilgan qozonxonalar va bino tomlarida

quyosh issiqligi inshootlari o'rnatiladi). Ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega choralar (ESDD) shuni ko'rsatdiki, Loyiha CO2 emissiyasining kamayishi, isitish infratuzilmalarning energetik samaradorligining oshishi va mavjud bo'lgan isitish xizmatlarining ishonchiligi va sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Loyiha doirasida tarmoqni kengaytirish bilan bog'liq ishlarning amalga oshirilishi ko'zda tutilmaganligi sababli, yer sotib olish yoki ajratish rejalashtirilmagan. Salbiy ta'sirlar tabiatan asosan qisqa muddatli bo'lib, qurilish va ta'mirlash ishlariga tegishli. Yo'l yo'nalishlarini o'zgartirish va transport vositalari oqimining potentsial ortishi tufayli, Loyiha joylardagi korxonalar, ochiq joylar va do'konlarga kirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin, ammo bu yon ta'sirlar ESAPga kiritilgan tegishli rejalar doirasida boshqariladi.

Kompaniya uchun ishlab chiqilgan ESAP Ekologiya va mehnat xavsizligi (EMX) ni boshqarish tizimining texnik xususiyatlarini Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiqlashtirish, tender hujjatlariga ekologik va ijtimoiy talablarni kiritish, qurilish bosqichiga har qanday ta'sirni kamaytirishga qaratilgan Qurilishda atrof-muhitni va ijtimoiy masalalarni boshqarish bo'yicha batafsil rejani (CESMP); kadrlar bilan ishlash qoidalarini ko'rib chiqish and rasmiylashtirish; ichki shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini joriy qilish, pudratchilarni boshqarish va monitoring qilish tizimini yaratish, shuningdek, Manfaaddor tomonlarni jalb qilish rejalarining amalga oshirilishini o'z ichiga oladi. ESAP, shuningdek, Kompaniya faoliyatining (UID bilan bevosita bog'liq bo'lmagan) boshqa jihatlarni ham, ularni PR talablari bilan uyg'unlashtirish maqsadida hisobga oladi. Bular qatoriga quyidagilar kiradi: o'rta hajmdagi yoqish qurilmalari (1-50 MVt) ning Yevropa Ittifoqi O'rta hajmdagi yoqish qurilmalariga doir ko'rsatmasiga muvofiqligini, shu jumladan 2030 yildan keyin muvofiq bo'lishini o'rganib chiqish, asbest bo'yicha tadqiqot o'tkazish, transformatorlarning moyida PXB mavjudligini tekshirish.

Bank, Kompaniyaning yillik Ekologik va ijtimoiy hisobotlarini ko'rib chiqish va kerak bo'lganda monitoring tashriflarini amalga oshirish orqali Loyiha va ESAPning amalga oshirilishini hamda kompaniyaning ekologik va ijtimoiy sohalaridagi faoliyatini nazorat qiladi.

Texnik hamkorlik

Imzolashdan oldin:

- TH 1: Texnik, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega choralar. Vazifa qiymati 300 ming yevroga teng bo'lib, u Infratuzilmaviy loyiha tayyorlash mexanizmi (IPPF) doirasida moliyalashtirilgan edi.

Imzo qo'yilgandan so'ng:

- TH 2: Kompaniyani tashkiliy, operatsion va moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash uchun Korporativ rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash choralar. Belgilangan xarajatlar 200 ming yevro atrofida baholanmoqda, va ular xalqaro donor yoki YTTB Hissadorlarining maxsus jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Sevar Astanov

info@mjko.uz

+99871 234-07-28

+99871 234-06-08

<http://mjko.uz>

Niyozbek Yuli ko'chasi, 1-uy, Toshkent shahri, 100035, O'zbekiston Respublikasi

Biznes hamkorligi

Biznes hamkorligi yoki ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

Davlat sektori loyihalari uchun EBRD Procurement ga murojaat qiling: Tel: +44 20 7338 6794 Elektron pochta manzili: procurement@ebrd.com

Umumiy so'rovlar

Ta'minot masalalari bilan bog'liq bo'lmagan YTTB loyihalari bo'yicha ma'lumot uchun: Tel: +44 20 7338 7168 Elektron manzil: projectenquiries@ebrd.com

Ma'lumotlarni oshkor etish

Ma'lumotlarni oshkor etish siyosati YTTB o'zining strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni qanday oshkor etishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

[Ma'lumotlarni oshkor etish nizomining matni](#)

Shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi

[Project Complaint Mechanism](#) (PCM), ya'ni shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi YTTBning mas'uliyatni o'z bo'yniga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxlar va tashkilotlardan YTTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar ekologik va/yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin holatlat bo'yicha shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shikoyat qilish uchun Project Complaint Mechanism sahifasiga tashrib buyuring. Sizning shikoyatlar yuzasidan mavjud har qanday savolingizga Shikoyatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul mutaxassis (pcm@ebrd.com) Shikoyatlar qilish tartibiga muvofiq (PCM Rules of Procedure) javob beradi.